

Date: 7<sup>th</sup> June-2025

## FANO MAYXONASIDAGI HAQIQAT



**Ma'rifat Rajabova**

BuxDU professori,

**Xayriddinova Safiya**

BuxDU 2-bosqiya talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning forsiy g'azali tahlil qilingan. Navoiy – buyuk so 'z san'atkori. Uning har bir so'zida o'zgacha ma'no va ohang bor. Navoiyning Forscha g'azali tasavvufiy qarashlar yordamida sharhlangan.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, mug'bacha, may, sharob, soqiy, Kavsar, dayr, fano, tasavvuf.

Alisher Navoiyning forsiy tilda yozilgan g'azallari fors-tojik adabiy an'analari asosida, ayniqsa, Hofiz, Sa'diy va Jomiy kabi shoirlarning ta'siri ostida shakllangan. Ulug' shoir nafaqat o'z g'azaliyoti bilan mumtoz forsiy she'riyatga munosib hissa qo'shdi, balki unda o'ziga xos ilohiy-irfoniy mazmunni ham yuksak darajada ifoda etdi.

Mutafakkir shoirning forsiy g'azallarida ishq, hijron, vafo, sabr va komillik kabi mavzular bilan birga tasavvufiy karashlar ustuvor ekanligiga ham guvoh bo'lish mumkin. Shu bois, uning she'rlarida "sharob", "mastlik", "soqiy", "mayxona", "dahr", "fano" kabi ramziy obrazlarga duch kelamiz. Shoirning "Devoni Foni" taxallusi bilan yozgan forsiy she'rlari uning ikki tilda barobar badiiy salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Fikrimizni ulug' shoirning "Devoni Foni" siga kirgan 127- g'azali ham tasdiqlaydi.

G'azal 9 baytdan iborat. G'azalda ilohiy ishq, fano va ma'naviy yuksalish yo'lidagi solikning ruhiy olami badiiy talqin qilingan. Buni g'azalning dastlabki baytidayoq ko'rshimiz mumkin.

Dar maykada onro, ki ba kaf qomi sharob ast,

Aybash makun, ar shomu sahar mastu xarob ast.<sup>1</sup>

**(Tarjimasi:** Agar sharob kosasi qo'lida bo'lgan zotni mayxonada ko'rsang, uni tanqid qilma. Agar kecha – kunduz mastu xarob va beqaror bo'lsa ham uni ayblamang).

Baytda "sharob" – ilohiy muhabbat ramzi. "**Mayxona**" – tasavvuf adabiyotida ma'rifat, ishq va haqiqatni topish maskani. Bu so'z zohiriy sharobxona emas, balki botiniy ma'noda insonning ruhiy kamolot yo'lidagi safarini ifoda etadi. "**Mastu xarob**" bo'lish esa ma'naviy mahv bo'lish, ya'ni nafsn yengib, Mutlaq ruh bilan birlashishni anglatadi. Alisher Navoiy bunday ruhiy holatdagi kishilarni tanqid qilishni nohaq, deb biladi. Chunki ular zohirda g'ayriodatiy ko'rinsa-da, botinda Iloh muhabbati bilan mast bo'lib yashaydilar. Ya'ni, bu holat – tafakkur va muhabbat tufayli vujudga kelgan ruhiy holatdir.

Bardoshtan az may natavonad sari xudro,

Az boda havo dar sari on, k-ý chu hubob ast.

<sup>1</sup> Алишер Навоий.Муқаммал асарлар тўплами. XX жилд. XVIII жилд.-Т.: ФАН,2002. -Б.127.

Date: 7<sup>th</sup> June-2025

**(Tarjimasi:** *Har kimning boshida may havasi bo'lsa, may ustidagi pufakchadek boshini maydan ko'tara olmaydi).*

Ikkinchı baytda o'ziga xos tasvir yaratilgan. **Hubob** – suv va boshqa suyuqliklar yuzasida paydo bo'ladigan pufakcha. Shoiring ta'kidicha, kimniki, "boshi"da may havasi bo'lsa, ya'ni ishq istagi, lazzat va ruhiy tuyg'ular havasi bilan to'lgan bo'lsa, bunday insonlar xuddi "hubobdek" – maydan boshini ko'tara olmaydi.

Alisher Navoiy ushbu baytda ruhiy kamolotga erishish oson emasligini, buning uchun qalb va aql "may"ni ko'tara oladigan darajada mustahkam bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Zohiriy ishq yoki ruhiy lazzat havosi bilan yashash insonni maqsadga yetkazmaydi. Agar inson ruhan hubob kabi zaif bo'lsa, u ilohiy ishqni ko'tara olmaydi va haqiqat yo'lida parokanda bo'ladi.

Sarrishtai korash kashad oxir ba xarobă.

Har mast, ki aftoda dar in dayri xarob ast.

**(Tarjimasi:** *Kimki bu xaroba dayr ichida mast bo'lib qolgan bo'lsa, oqibat uning ishi xaroblikdir).*

Mumtoz adabiyotda **"dayr"** tushunchasi **"dunyo"** va **"mayxona"** ma'nosida qo'llaniladi. Bu atama orqali shoir inson hayotning o'tkinchiligiga ishora qiladi. Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, bu dunyo **o'tkinchidir**, unga shuhrat, mol-mulk yoki havas bilan shaydo bo'lish insonning ma'naviy tanazzuliga olib keladi. Shu bois, dunyo hayotidagi asosiy vazifa – **yaxshilik qilish, savobli amallar bajarish va ma'naviy poklikka intilishdir**. Chunki insonning asosiy maqsadi bu dunyodagina emas, oxiratda amalgalashirilgan yaxshiliklar orqali **jannatga erishishdir**.

May kash, mai Kavsar zi kafi huri bihishtă,

Dar dýzaxi maxmuriyat, ey dil, ki azob ast.

**(Tarjimasi:** *Ey dil, xumorlik do'zaxida azob tortding, shuning uchun jannat huri qo'lidan Kavsar mayini ichgin).*

**"Kavsar"** Qur'on karimda uchraydigan muqaddas tushuncha bo'lib, asosan, jannatdagi bebaho suv va ne'matlarni ifoda etadi. Qur'oni Karimning **"Kavsar"** surasida **shunday deyiladi** "Albatta, Biz senga Kavsarni berdik. Bas, Robbingga namoz o'qi va jonliq so'y (1-2-oyatlar) Bu yerda Kavsar – jannatdagi pok suv ramzi sifatida tushuniladi. Tasavvuf falsafasida kavsar suvi – bu ilohiy qudrat va ma'naviy poklikni ifoda etuvchi ramziy tushuncha hisoblanadi. **Kavsar** – ruhiy tozalik, ma'rifiy nur. Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy bu dunyoda ilohiy ishqdan mast bo'lgan, Haqni anglagan solikning Kavsar suvi – **ilohiy rahmat va fazlga ega bo'lishiga urug'u beradi**.

Dar dayri fano чоми yaqin қўй, ki matlub,

Az pardai pindori tu barbasta niqob ast.

**(Tarjimasi:** *Fano mayxonasida o'zlikdan kechib haqiqiy jomni ista, chunki matlub yuziga manmanlik parda bo'lgandir).*

Shoiring fikricha, solik *fano* – o'zlik, nafshi yo'qotish orqali **ma'naviy jom – poklik va haqiqatga erishishi mumkin**. Chunki manmanlik va nafs pindori (shubhali fikrlari yoki kibr) **Haq va solik o'rtasida parda bo'lishi mumkin**. Tasavvufda "**parda**"

Date: 7<sup>th</sup> June-2025

– nafs, havas, g‘urur kabi dunyoviy istaklar ramzi sifatida talqin qilinadi. Ular insonning haqiqiy ma’rifatiga yetishiga to‘sinq bo‘lib, qalbni yopib qo‘yadi.

**“Fano mayxonasi”** da solik nafs bilan kurashadi, uning barcha shaxsiy manmanliklari va kibri sinovdan o‘tadi. Ushbu jarayonda inson o‘z nafsin mag‘lub etib, poklanish yo‘liga qadam qo‘yadi.

Ey mug‘bacha, chun rŷi tazarv ast uzorat,

3-on rŷy ki chun xuni tazarvat mai nob ast.

(**Tarjimasi:** *Ey mug‘bacha, yonog‘ing qirg‘ovulning yuzi kabitdir, shuning uchun mayning ham qirg‘ovul qoniga o‘xshaydi*).

Mug‘bacha – may quyuvchi, u ishqidan sarmast bo‘lgan, shu sababli yuzida nur alangalanadi. Bu o‘rinda qizillik ishqidan sarmast bo‘lishlik ramzi. Baytda mug‘bachaning yuzi qizilligi qirg‘ovulning yuziga o‘xshatilgan. May qizil rangda bo‘ladi, qonning rangi ham qizil. Mayning qizilligi qon vositasida yanada oydinlashtirilgan. *Baytdagi* “xuni tazarvat” va “mayi nob” birikmalari tasavvufiy she’riyatda ilohiy muhabbat, ma’naviy poklik va haqiqatning ramzi sifatida qo‘llaniladi.

In davr ba yak chashm zadan gashta digargun,

Ey umr, ba raftan zi bari mo chī shitob ast?

(**Tarjimasi:** *Bu davr ko‘z yumib-ochguncha boshqa shaklda aylanadi, ey umr (jonon), mening yonimdan ketishga muncha shoshilasan?*)

Sharq she’riyatda umrning o‘tkinchiligi mavzusiga ko‘p bora murojaat qilingan. Yuqorida keltirilgan baytda ham shu an’ana davom ettirilgan. Baytda inson hayoti va vaqtning tez o‘tishi haqida teran falsafiy mulohazalar biddiy talqin qilingan. Shoир buni birinchi misradagi **“yak chashm zadan”** (ya’ni, ko‘z ochib-yumguncha) iborasi orqali aniq va lo‘nda ifodalaydi. Ikkinci misradagi **“shitob”** – shoshilish, tezlik ma’nosidagi so‘z fikrga yanada oydinlik kiritadi. Shu orqali shoир insonlarni umrning qaytmas jarayon ekanligidan ogohlantiradi. Baytdagi asosiy g‘oya – insonning vaqt oldidagi ojizligidir. Ushbu fikrlar insonni hayotga nisbatan ongli, shukronali munosabatda bo‘lishga chaqiruvchi falsafiy o‘ylarga olib boradi. Shoир vaqtning qadrini bilish, har lahzani samarali o‘tkazish zarurligini bilvosita uqtiradi.

Dar maykada gar g‘arqi mayam tavba shikasta,

Ey shayx, zi mo darguzar, on olami ob ast.

(**Tarjimasi:** *Ey shayx, tavbani sindirib, mayxonada mayga g‘arq bo‘lsam, bizni kechir, chunki mayxona – suv olamidir*).

**Tavba** – xatoni tan olish va undan qaytishdir. Biroq mazkur baytdagi **“tavbani sindirmoq”** birikmasi an’anaviy tavba emas, balki majoziy ma’noda bo‘lib, zohiriyl qoidalarni buzib, ruhiy kamolot yo‘liga kirishni anglatadi. Shoирning ta’kidicha, agar solik mayxonada (ya’ni irfoniy muhabbat olamida) may (ya’ni ma’rifat) ta’sirida “tavbani sindirib”, ya’ni zohiriyl tavba qoidalarni buzsa, u holda uni malomat qilmaslik kerak. Chunki bu holatda solik aql bilan emas, ishq bilan harakat qiladi. “Tavbani sindirish” shariat nuqtai nazaridan nuqson sanalsa-da, tasavvufda u ruhiy ozodlikni anglatadi. Ishq yo‘lidagi solik qonun-qoidalarni bilan emas, balki ilohiy ehsoslari bilan harakat qiladi.

Date: 7<sup>th</sup> June-2025

E'tibor bersak, baytda shariat va tariqat o'rtasidagi ziddiyat ramziy ifoda orqali berilgan. Chunki haqiqiy ruhiy holatda inson shariatning zohiriyo ko'rsatmalari doirasida qololmaydi. Shoir buni "ob" (suv) ramzi orqali yanada badiiylashtiradi. Mayxonadagi holat shundayki, solik ishq ta'sirida, "oqib ketadi". Shoir baytda mayxonani – "suv olami" sifatida talqin qiladi. "Mayxona"da inson zohiriy qonunlar (masalan, tavba, aql) bilan emas, botiniy hislar, muhabbat va sarxushlik bilan harakat qiladi. "**G'arq bo'lish**" – ma'rifikatga yuz burish (ya'ni ruhiy sarxushlik). Solik bunday holda o'zini nazorat qilolmaydi, o'zini xuddi suvda g'arq bo'lganday his qiladi. Shu ma'noda, "suv olami" – mayxonaga kirgan inson ixtiyoridan voz kechib, ishq va ilhom bilan harakat qiladi.

Fonj, chj shavj sheftai dahr, ki kavnayn

Dar dashti fano chumla namudori sarob ast.

(*Tarjimasi: Ey Fony, dunyoga nima uchun maftun bo'lasan, holbuki, fano dashtida ko'ringan barcha narsalar sarobdir.*)

**Ibn Arabiyning ta'lomitiga ko'ra**, dunyodagi har bir narsa "zohiriy vujud"dir, ammo "haqiqiy vujud" – faqat Allohga xos. G'azal ma'qtasida xuddi shu g'oya ilgari surilgan. "**Sheftai dahr**" – **dunyoviy muhabbatga shaydolik**. Bu ibora orqali muallif dunyo ishqida mubtalo bo'lishni qattiq tanqid qiladi.

"**Dashti fano**" – hayot sahrosi. Undagi har bir ko'rinish – "namudor" - sarob, ya'ni **aldamchidir**. Dahr inson qalbini tortadigan zohiriy ziynatdir.

G'azal maqta'si Alisher Navoiyning falsafiy, irfoniy qarashlarining she'riy ifodasi deyish mumkin. Dahr aldamchi, zohiriy narsalar – sarob, haqiqat esa botinda yashiringan. Iinsonni haqiqatga olib boruvchi yo'l – Xaqqa yuzlanish, ishq va fano orqali yuksalishdir.

Ilohiy ishq yo'li – ruhiy poklanish, nafshi yengish va fanodan o'tib haqiqatga yetish yo'lidir. Bu yo'l shariatdan botinga, zohirdan ma'rifikatga, aqdan qalbga olib boradi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy g'azaliyotini anglash – **shaklni emas, ma'nolar tizimini anglash demakdir**. Bu ma'nolar esa tasavvuf nazariyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Demak, Navoiyni to'liq anglash uchun inson nafaqat ilmiy bilimga, balki **ma'naviy tozalik va ma'rifikat yo'liga** ham ehtiyoj sezadi. Bu esa ulug' shoir merosini "**ma'rifikat maktabi**" sifatida baholashimizga imkon beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Алишер Навоий.Муқаммал асарлар тўплами. XX жилд. XVIII жилд.-Т.: ФАН,2002.
2. Abdulaziz Mansur.Qur'oni Karim :Tarjima va tafsir.- Toshkent: G'afur Gulom nomidagi nashriyot- matba ijodiy uyi, 2018.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmaddin-komilov-timsollar-timsoli-alisher-navoiy-gazaliga-sharh.html>.